ZAMONAVIY HIKOYACHILIKDA RAMZ VA TIMSOLLAR

Gulnora Avezova
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qoraqalpoq Davlat universiteti O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi

Annotatsiya: Ma’lumki, hikoyada bitta detal, obraz orqali juda katta masalalarni talqin qilish mumkin. Negaki, har bir detal ma’lum ma’noda biron voqelikni ochib berishga xizmat qilishi tayin. Ushbu maqolada zamonaviy hikoyachilikda ramz va timsollar masalasi muhokama etiladi.

Kalit so’zlar: hikoya, ramz, timsol, vosita, obraz, detal.

СИМВОЛЫ В СОВРЕМЕННОМ РАССКАЗЫВАНИИ

Гульнара Авезова
Кандидат филологических наук, доцент
Каракалпакский государственный университет
Кафедра узбекского языка и литературы

Аннотация: Известно, что очень большие вопросы можно трактовать через одну деталь, образ в рассказе. Ведь каждой детали суждено раскрыть какую-то реальность в определенном смысле. В данной статье рассматривается вопрос символов и символов в современном сторителлинге.

Ключевые слова: рассказ, символ, символ, прием, образ, деталь.

SYMBOLS IN MODERN STORYTELLING

Gulnara Avezova
Candidate of philological sciences, docent
Karakalpak State University Department of Uzbek language and literature

Abstract: It is known that very big issues can be interpreted through one detail, an image in the story. After all, every detail is destined to reveal some reality in a certain sense. This article discusses the issue of symbols and symbols in modern storytelling.

Key words: story, symbol, symbol, device, image, detail.

KIRISH

Munaqqid M.Qo'shjonov shunday yozadi: "Asarda voqelikning tashkil qilinishiga qarab syujetni ikki turga ajratish mumkin: ulardan biri – xronologik tur, ikkinchisi – murakkab psixologik tur. Syujetning murakkab psixologik turida yaratilgan asarlarga nisbatan xronologik turida yaratilgan asarlar ko'proq uchraydi. Xronologik syujet shu bilan xarakterlanadiki, unda qahramon va yoki qahramonlar hayot yo'li, uning boshidan o'tgan voqealar uzluksiz tartibda beriladi. Binobarin, munaqqidning ushbu fikrlari ham bevosita Ulug'bek Hamdam ijodiy izlanishlariga ham taalluqlidir. Hikoya qilish asnosida "hikoya ichida hikoya" usuli yozuvchiga juda qo'l keladi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Azal-azalda ajdodlarimiz koinot jismlariga baho berishda "fetish" tarzida munosabat bildirishgan. "Oy va quyosh" yulduzlar haqidagi mifologik afsonalar, rivoyatlar, bizga ko'plab sir-asrorlardan darak beradi. Biz oy timsolida vazminlik, olijanoblik, vatanparvarlik, saxiylik, go'zallikni anglaymiz. Oy – timsolida haqiqiy ma'noda mehru muhabbatni tushunamiz. Ulug'bek Hamdam – oy timsolida yuksak insoniy fazilatlarga ega shaxsni tahlil qilganligining guvohi bo'ldik. Biroq oy nimaga va qanday o'xshatishga ega bo'lmasin, o'zicha qabul qilishni hohlaydi. Hikoyadagi syujet qismlarini bir-biriga payvandlagan hafta tunlarida ham o'ziga xos ramz mavjud. Folklorshunos olim J.Eshonqul qayd etishicha: "Timsol o'zi nima? Biz biron asarni o'qiganimizda yoki xalq ijodi namunasini tinglaganimizda gap Ahaqida borayotganday bo'lsa ham, asl ma'no B ga tegishli ekanligini his etib turamiz. Biz buni istamasak-da ichki tuyg'ularimiz A aslida B ekanini takrorlayveradi. Chunki timsolni aqlimiz emas, tuyg'ularimiz tez anglaydi. Timsol – tashqi dunyoning bizning ichki dunyomizda, "qalbimiz va ongimizdagi aksidir". Demak, ichki dunyomizda tashqi dunyonio'ziga xos qabul qiluvchi xususiyat bor. U tashqi dunyoni ramzlar, timsollar orqali, ya'ni o'zicha "qayta ishlab" qabul qilishga moslashgan. Inson tug'ilgandayoq dunyoga shunday ruhiy imkoniyat bilan kelgan. Ilk odamlar tabiat va koinot sirlarini timsollar orqali qabul qilganlar bejiz emas" [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Oy – sharq xalqlarida baxt va omad ramzi. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida oy timsoli mol-dunyo, davlatga qiyoslanadi. U.Hamdam esa hikoyada oy timsoli orqali jamiyatda bo'layotgan uzil-kesil o'zgarishlar, nafs va manfaat ilinjida yashayotgan odamlarning dunyoqarashiga baho berish ramzi sifatida qaraydi. Tunda oy safarga chiqadi.

Yozuvchi oyning safaridan murod shuki, u o'z holicha asl ma'noda baho berishni xohlaganligini tasvirlaydi. Bir qarashda, juda oddiydek tuyulgan manzarada katta ramziy-falsafiy talqin borligi seziladi:

"...Shunday qilib, el qatori ichkarilayotgan bir qariyaning izidan tushdi u... Qariyacharchagan ekan shekilli, dam o'tmay xobxonaga kirib, tayyor solingan o'ringa

uzandi. Lekin aksariyat shu yoshadagila singari u ham qushuyqu bo'lib, kechasi bilan u yondan-bu yonga ag'darilib chiqdi. Tong yovuqlashganda esa, yuvinib-netib keldi-da, ibodatga toldi. Shunda to'lin oy bulutlar orasidan asta sirg'alib, deraza ko'zidan shundoq qariyaga nigoh tashladi va tuyqus ularning ko'zlari uchrashib qoldi. Shunda qamar qariyaning ko'z soqqalarida titrab turgan o'z suvratini ko'rdi va botinida unga yanada yaqinroq borish istagini tuydi. Ancha-muncha to'siqni pisand qilmaydigan shu'lalariga osilib tag'in biroz pastga endi va qariyaning ko'zlariga uzoqroq tikildi, tikildiyu shu on... u yerda cho'kka tushgan ko'yi ibodatda o'tirgan inson qiyofasini ilg'ab qoldi. Negadir oy cho'chib ortga tisarildi... Unga qariyaning oy ruxsorida oyning o'zini emas, balki o'z qalbining suvrati – Yaratganga iltijo qilib o'tirgan xudojo'y zotni ko'rib turganligi sira-sira xush kelmagandi..." [3]

Bu lavhada oyning birinchi tundagi safari haqida bayon qilingan. Yozuvchi shu tarzda oyning yetti tunda yetti xil voqelikning guvohi bo'lgan oy timsolini tahlil markaziga yo'naltiradi. Aslida, hikoyada oyning har bir makonga safar qilishi orqali insonlararo munosabatlarning nechog'li murakkab, mol-dunyo, manfaatlar to'qnashuvi, global muammo ekanligini zukko o'quvchiga tanishtirishdan iborat.

XULOSA VA MUNOZARA

Matnshunos R.Bart alohida ta'kidlaganidek: "Agar zamonaviy adabiyot namoyondalariningma'lum qismi "personal"ga qarshi chiqqan bo'lishsa, bu aslo uni barbod qilish uchun emas (buning iloji yo'q), balki qiyofasini o'zgartirish uchun qo'yilgan qadamdir" [4]. Haqiqatdanham, R.Bart talqinlarida joriy kundagi inson fenomenini har tomonlama chuqur tahlil qilish yozuvchidan katta intellektual bilim, salohiyat, mahoratni talab etadi. Ayniqsa, inson ruhiyati, aniqrog'i, realizm an'analari bilan romantik ruh ustuvorlik qiladi. U.Hamdamda realistik uslub bilan romantik uslub qorishiq (sinkretik) ifodani barqarorlashtirgan. Yuqoridagi oy ramzi noodatiy talqin ran ginlashuviga yo'l ochgan deyish mumkin. Noodatiy talqin deganimiz – azim ajdodlarimizdan o'tib kelayotgan muhim an'analarni yangilashga moyillik natijasida yuzaga keladi. Shuningdek, hikoyadagi asl maqsad – g'oyaviy yo'nalish, oy va inson mushohadasida qiyoslanishida hamohanglik mavjud. Oy koinot jismi bo'lishi bilan u aql sohibi inson ruhiyatidagi inja o'zgarishlarni bila oladigan bashoratgo'y singari namoyon bo'lgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. –T., Sharq. 2011–B. 389
2. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi, Nasaf. 2009. –B.81.
3. Hamdamov U. To'lin oy qissasi. –T., O'zbekiston. 2012–B.339-340.
4. Bart R. Hikoya matnlarini strukturaviy tahlil qilishda estetika va nazariyaga kirish // XIX-XX asrlar xorijiy adabiyoti. Traktatlar. Maqolalar. Insho. -M.: 1987. -S. 407.